BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA OTA-ONA VA O‘QITUVCHI HAMKORLIGINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2- bosqich talabasi
Xayriddinova Malhamat

Annotatsiya (o‘zbek tilida)

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida ota-ona va o‘qituvchi hamkorligining pedagogik ahamiyati, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni hamda samarali hamkorlik shakllari tahlil qilinadi. Oila va maktab o‘rtasidagi uzviy aloqaning ta’lim sifati hamda tarbiyaviy jarayonga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ota-ona, o‘qituvchi, hamkorlik, boshlang‘ich ta’lim, tarbiya, pedagogika, oila va maktab

Annotation (in English)

This article analyzes the pedagogical importance of parent-teacher cooperation in primary education, its role in the comprehensive development of students, and effective forms of collaboration. The impact of close interaction between family and school on educational quality and upbringing is highlighted.

Keywords: parent, teacher, cooperation, primary education, upbringing, pedagogy, family and school

Аннотация (на русском языке)

В данной статье рассматривается педагогическое значение сотрудничества родителей и учителей в начальном образовании, его роль во всестороннем развитии личности учащегося, а также эффективные формы взаимодействия. Освещается влияние тесной связи семьи и школы на качество образования и

воспитания.

Ключевые слова: родители, учитель, сотрудничество, начальное образование, воспитание, педагогика, семья и школа

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri-bu oila, maktab va jamiyat o‘rtasidagi samarali hamkorlikni yo‘lga qo’yishdir. Chunki bola tarbiyasi faqat maktab yoki faqat oila zimmasidagi vazifa emas, balki ularning o‘zaro uzviy aloqasiga asoslangan kompleks jarayondir. Shu nuqtai nazardan, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish va uni ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish masalasi bugungi kunda dolzarb bo‘lib kelmoqda. Insonni shaxs sifatida shakllanishida bolalik davri eng muhim davr hisoblanadi. Ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichi asosiy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi va uzliksiz ta’limning bir qismi bo‘lib, 1-4 sinflarni qamrab oladi.

Boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarni individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni aqliy, jismoniy, ruhiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik texnologiyalaridan, interfaol usullardan foydalangan holda darslarni samarali tashkil qilib, o‘quvchilarni tartib intizomli va bilimga chanqoq, vatanparvarlik ruhida bilim berish asoslarini yaratishdan iborat. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi ma’lum malaka talablari va shaxsiy fazilatlarga ega, oliy ma’lumotli shaxs hisoblanadi. Ular o‘zida kasbiy kompetentlik ya’ni o‘z fanini mukammal bilishi va zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalana oladigan hamda psixologik ko‘nikmalarga ega jumladan, bolalarni yosh xususiyatlarini, xulq-atvorini o‘rganishi har qanday vaziyatda o‘quvchilar ko‘ngliga yo‘l topa oladigan, darslarni qiziqarli o‘tishi uchun ijodkor va sabrlilik va chidamlilik xususiyatlarini o‘zida jamlagan bo‘lishi shart.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Ushbu jarayonda nafaqat o‘qituvchi, balki ota-onalarning ham faol ishtiroki zarur. Chunki bola tarbiyasi va ta’limi oilada boshlanib, maktabda davom etadi. Oila va maktabning o‘zaro hamkorligi o‘quvchining bilim olish jarayoni, axloqiy tarbiyasi va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil sanaladi. Shu sababli ota-ona va o‘qituvchi o‘rtasidagi samarali muloqot hamda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bugungi ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va ota-ona hamkorligi bolaning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi, akademik o‘zlashtirishi va ijtimoiy moslashuvi uchun hal qiluvchi pedagogik omildir. Yagona pedagogik talablar, muntazam muloqot va o‘zaro ishonch orqali o‘quvchida ta’limga motivatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish va intizom shakllanadi. Bu hamkorlik o‘qituvchiga bolaning psixologik holatini tushunishga, ota-onaga esa ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga imkon beradi.Hamkorlikning pedagogik ahamiyati va asosiy yo‘nalishlari:Ta’lim-tarbiya birligi: Oila va maktabdagi tarbiyaviy usullarning uyg‘unligi bolada barqaror dunyoqarashni shakllantiradi.Akademik muvaffaqiyat: Ota-ona nazorati va o‘qituvchi metodikasi birlashganda, o‘quvchining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yuqorilab, bilimlarni o‘zlashtirishi tezlashadi.Ijtimoiy moslashuv: Hamkorlik bolaning maktab muhitiga osonroq moslashishini, tengdoshlari bilan muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydi.Psixologik qo‘llab-quvvatlash: O‘qituvchi bolaning xarakteridagi o‘zgarishlarni ota-onaga yetkazib, muammoli vaziyatlarni erta aniqlash va bartaraf etish imkoniga ega bo‘ladi.Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish: O‘zaro aloqa bolada mustaqillik, mas’uliyat va ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, ta’limiy hamkorlik. Ota-onalar farzandining dars tayyorlash jarayoni,

o‘qishdagi qiyinchiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lib, o‘qituvchi bilan muntazam aloqada bo‘lishi zarur. Bu o‘quvchining bilim samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, tarbiyaviy hamkorlik. Axloqiy sifatlar, odob-axloq, mas’uliyat va intizomni shakllantirishda maktab va oilaning yagona yondashuvi muhimdir.

Uchinchidan, psixologik qo‘llab-quvvatlash. Bola ruhiyati va individual xususiyatlarini hisobga olishda ota-ona hamda o‘qituvchi o‘zaro fikr almashishi lozim.

To‘rtinchidan, tadbirlar va uchrashuvlar. Ota-onalar yig‘ilishi, mahorat darslari, tarbiyaviy tadbirlar va ochiq darslar hamkorlikni mustahkamlaydi.

Beshinchidan, zamonaviy aloqa vositalari. Telefon, messenjerlar va elektron platformalar orqali tezkor muloqot qilish bugungi kunda hamkorlik samaradorligini oshirmoqda.

Shuningdek, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish ham muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ota-onalar bilan samarali mustahkam hamkorlikni o‘rnatib interfaol ishlashi bolaning muvaffaqiyatli o‘qishi va har tomonlama rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ota-onalar bilan hamkorlikning quyidagi asosiy usuli mavjud bo‘lib,bular:

An’anaviy usul. Bu usulning quyidagi shakllari yordamida hamkorlik o‘rnatish mumkin.

Ota -onalar majlisi:Bu ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakli bo‘lib,sinf jamoasi hayotidagi muhim masalalar va yangiliklar muhokama qilinadi.

Individual suhbatlar va uchrashuvlar:bunda o‘quvchilarning ota-onalari bilan yakka tartibda uchrashuvlar tashkil etilib,o‘quvchining xulqi,o‘zlashtirishi,muvaffaqiyatlari va kamchiliklari muhokama qilinadi.

Ota –onalar qo‘mitasi:bunda maktab yoki sinfdagi ota-onalardan iborat faol guruh tuzilib,ular ta’lim jarayonini yaxshilashga yaqindan yordam berishadi.

Kundalik va xabarnomalar:bunda o‘qituvchi ota –onalarga o‘quvchilarning

kundalik yutuqlari,sinf qoidalari yangiliklar davomat haqida doimiy ravishda ma’lumot berib boriladi.

2.Innavatsiyon va zamonaviy usullar:Bu usulning quyidagi shakllari yordamida muloqot o‘rnatish mumkin.

Virtual muloqot telegram,whatsAppdagi guruhlar orqali kunlik ma’lumotlar va e'lonlar almashinuvi.

Elektron platformalar:kundalik.com orqali baholar uy vazifalari va davomatni onlayn kuzatish

Onlayn so‘rovnomalar bunda ota-onalar bilan aloqani mustahkamlash,fikr mulohazalar yig‘ish va ta’lim sifatini oshirishning tezkor usullaridan biridir.

Trening va seminarlar o‘tkazish:Ota –onalarning pedagogik madaniyatini oshirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar treninglar va seminarlar o‘tkazish.

Jamoaviy loyihalar va tadbirlar bu o‘quvchilar va ota onalarni birgalikda birlashtirib jamoa bo‘lib ishlashi .

Pedagog ota-onalar bilan hamkorlik qilishda ishonch va hurmat muhitini yarata olishi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi.Quydagi metodlardan foydalanish samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

Anketalar va so‘rovnomalar:oiladagi muhit bolaning qiziqishlari, ota-onaning tarbiya usullarini aniqlash uchun o‘tkaziladi.

Suhbat:o‘quvchilarning muammo va yutuqlari ,kamchiliklari muhokama qilinadi.

Testlar:bunda oiladagi o‘rni,mas’uliyatni qanday his qilishlari,qiziqishlari , kamchiliklar aniqlanadi.

Art-terapiya:ota ona va bola birgalikda rasm chizish orqali yaqinlikka erishiladi.

Psixologik qo‘llab quvvatlash ota-onalarni ayblash emas balki, uning muammo va qiyinchiliklariga birga yechim topish.

Ijobiy mativatsiya faqat bolasini kamchiliklarini emas, balki uning kichik yutuqlarini ham bo‘lishib xabar va tashakkurnomalar yuborish.

Tavsiya va takliflar: Bugungi kunda maktab va oila hamkorligining bola shaxsiga ta’siri,bu jarayonning dolzarbligini hisobga olib quydagi amaliy metodlarni qo’llash samarali “Interaktiv ochiq eshiklar kuni”:faqat dars kuzatish emas,balki ota-onalarni dars jarayoniga master-klass sifatida jalb qilish. Alohida uyga vazifalarni “ota-onam bilan bajardim”shaklida loyiha ko’rinishida tashkil etish.”Rollar almashinuvi”:Ota-onalar majlisida ota-onalarga o’quvchi ro’lini berish orqali bolaning maktabdagi holatini his qildirish.Ota-onalar majlisini zerikarli va doim muammoli vaziyatlar shaklida tashkil etmaslik.Kamchiliklarni hammani oldida tanqid qilmaslik balki bu muammolarni faqat yuzma- yuza hal qilish lozim deb hisoblayman.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biridir. Oila va maktabning uzviy hamkorligi natijasida bolaning bilim darajasi, axloqiy tarbiyasi, ijtimoiy faolligi va psixologik barqarorligi yanada mustahkamlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun yagona talab va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, o‘qishga qiziqishini kuchaytiradi hamda xulq-atvorida ijobiy o‘zgarishlar yuzaga keltiradi. Shu bois ota-onalar farzand ta’limiga befarq bo‘lmasligi, o‘qituvchilar esa oilalar bilan ochiq va samimiy muloqotni yo‘lga qo‘yishi zarur.

Samarali hamkorlik asosida yuzaga kelgan o‘zaro ishonch bolani nafaqat bilimli, balki ma’naviy barkamol inson sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari orqali aloqa imkoniyatlarining kengaygani bu jarayonni yanada qulaylashtirmoqda.

Natijada, ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi kuchli bo‘lgan ta’lim muhiti sog‘lom, intellektual salohiyatli va mas’uliyatli yosh avlodni voyaga yetkazadi. Demak, oila va maktab hamkorligini mustahkamlash ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2.Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

3.Abu Nasr al-Farabi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.

4.Jan Amos Komenskiy. Buyuk didaktika. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975.

5.Konstantin Ushinskiy. Inson – tarbiya predmeti sifatida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988.

6.O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2023.